

## ATMOSFERAGA ZARARLI MODDALARNI TASHLANISHINI KAMAYTIRISH VA ULARNI OLDINI OLISH USULLARI

**O'ktamov Ahliyor Yusufjon o'g'li**

*Namangan Muhandislik Texnologiya Instituti talabasi*

**Sultonov Dilshodbek Tursunboy o'g'li**

*Namangan Muhandislik Texnologiya Instituti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolamizda hozirgi kunda global muammolardan biri atmosfera havosini ifloslanishi va uning oqibatleri, hamda ozon qatlamini yemirilishini kamaytirish bo'yicha tavsfiyalar berib o'tilgan.*

**Kalit sozlar:** *Global muamo, Atmosfera, Azon, Organik yoqilg'i, oltingurgutli yoqilg'ilar, Patogen, Anomal issiq, Anomal sovuq.*

Global muamolardan biri bu atrof muhitdan va zavot fabrikalardan chiqayotgan ifloslangan havodan Azon qatlamining yemirilishi va ifloslangan havodan dunyo aholisini nafas olishi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti xulosasiga ko'ra, dunyo aholising 99 % i ko'rsatgichdan yuqori bo'lgan havodan nafas olmoqda. Bu insoniyat salomatligi uchun jiddiy tahdid. Qolaversa, olimlar fikricha, azot dioksidi miqdori oshishi nafas yo'llarida jiddiy muommolar, xususan bronxial astma, nafas yo'llari rakini yuzaga keltiradi. Ko'rinib turibdiki sanoat ishlab chiqarish qanchalik rivojlansa, atmosfera havosi ifloslanib boradi. Bu esa qish anomal sovuq, yozda anomal issiq bo'lib kelmoqda. Turli xil kasalliklar ifloslanish orqali yildan-yilga ko'payib ketmoqda.




Organik yoqilg'ilarning tarkibidagi eng zaharli elementlardan biri va atrof-muhitga yetarlicha zararli ta'sir etadigan elementlardan oltingugurt oksidi hisoblanadi. Oltingugurtning yoqilg'ildagi ushbu turli xil bo'ladi. Bu yoqilg'ilar turi va olishni olishniga, va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Atmosferaga chiqarilayotgan Oltingugurtli moddalar ulushini kamaytirishni usullariga kam oltingugurtli mazutni olish maqsadida, neftni qayta ishlovchi

korxonalarida, neftli yoqilg'ini oltingugurtdan tozalash va gaz yoqilg'ilarni olish undan keyingi oltingugurt elementlardan tozalash, bug' qozonlaridan tutun gazlarini SO dan tozalash kiradi.

Gazlashtirish jarayoni yuqori harorat sharoitida (900-13000S) kislorod chegaralanganda amalga oshiriladi. Yonish natijasida gaz hosil bo'ladi, uning yonuvchi elementlariga metan va uning birikmalari, uglerod oksid va vodorod kiradi. Bunda yoqilg'ining oltingugurtidan vodorod sulfid hosil bo'ladi, u SO<sub>2</sub> ga ko'ra ancha faol modda bo'lib, bug' qozonining o'txonasiga yonuvchi gazning kirishidan avval xalos etilishi mumkin. Bug' havo puflanishida 4,5 MJ/m<sup>3</sup> atrofida kichik yonish issiqligiga ega bo'lgan gaz olinadi, nisbatan qimmat bug' kislorodli puflanishda esa yonish issiqligini 12 MJ/m<sup>3</sup> gacha oshirish mumkin.

Oltingugurtni tozalash qurilmalari uchun eng oddiy va eng arzon material bu ohak SaO va ohaktosh SaSO<sub>3</sub> dan foydalanish hisoblanadi. Tozalanayotgan gaz skrubberda suvga qo'shilgan ohakli suv bilan yuviladi. Bu usul bilan tozalashda foydalanishga kerakli mahsulotlarni olish ko'zda tutilmaydi va olingan moddalar to'g'ridan to'g'ri tashlash joylariga yuboriladi.



Chizmada O'txona gazlarini Oltingurgut gazlaridan ohakli usulda tozalash korsatilgan: 1-skrubber ; 2-filtr; 3-tindirgich; 4-aerator; 5-shlamli nasos; 6-havo puflagichi; 7-tozalaydigan gazni kiritish; 8-oltingurgut oksidlaridan tozalangan sovutilgan gazning chiqishi; 9- ariq suvi; 10-ohakli suv; 11-marganes sulfatni qoshish; 12-shlamni tashlab yuborish; 13-tozalangan suvni oqizib tashlash.

Xulosa qilib aytsak atmosfera havosini buzilishi ko'p ziyon keltirdi. Hatto fauna va flora dunyosini o'zgartirib yubormoqda. Bu esa yerda kislorod aylanishini qiyinlashtiradi. Buning oldini olish uchun daraxtlarni kesishni kamaytirish, yashil olamni ko'paytirish lozim. Avtomobillar yoqilg'isini yashil energiyaga almashtirish, aholi orasida ekologiyaga bo'lgan dunyo qarash tashviqot ishlarini olib borishimiz kerak. Sanoat korxonalaridan chiqayotgan tashlamalar, gazli tutunlarni qayta

ishlash texnologiyasini har bir katta ishlab chiqarish zavodlariga joriy etish lozim. Bundan ham atmosferaga chiqariladigan chiqindilar qayta ishlanib, qurilish mahsulotlari, xom-ashyolar tayyorlash mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Raxmonov. M.N, To'lqinov.M Qozon qurilmalari. Namangan 2020.
2. Alibekov.I.A Inson va Tabiat. Toshkent 2016.
3. Qamariddin.U.A Qodirov.B.R Sanoat korxonalarida chiqindi tozalash texnologiyasi. Toshkent 2011.
4. Rahimova .T.U Ekologiya 2006

